

ALPOMISH VA GO'RO'G'LI DOSTONLARIDAGI MILLIY AFSONALAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR TAHLILI

Abdubannopova Masturaxon

Farg'ona Davlat Universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19886540>

Annotatsiya. Ushbu tezisda o'zbek xalq eposlarining asosi hisoblangan "Alpomish" va "Go'ro'g'li" dostonidagi qadimgi mifologik qatlamlar, mo'jizaviy tug'ilish afsonalari va totemistik tushunchalar ilmiy nuqta'i nazardan tahlil qilinadi hamda g'arb (yunon) mifologiyasi bilan solishtiriladi.

Kalit so'zlar: Mifologik, Alpomish, mo'jizaviy tug'ilish, Go'ro'g'li, va b.

O'zbek xalq qahramonlik dostonlari nafaqat tarixiy voqelikni, balki xalqimizning islomgacha bo'lgan qadimiy mifologik tasavvurlarini ham o'zida mujassam etgan. "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar o'zbek folkorning cho'qqisi hisoblanib, ulardagi qahramonlar oddiy insonlar emas, balki g'ayritabiiy kuch qudratga ega bo'lgan "alp"lar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu dostonlar negizida yotgan mifologik qatlamlarni o'rganish xalqimizning qadimiy dunyoqarashini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dostondagi har bir mifologik obrazlarda o'zining afsonaviy roli yotadi, xususan, Alpomish obrazini tahlil qilar ekanmiz, uning mo'jizaviy va g'ayritabiiy tug'ilishiga nazar solamiz.

Alpomishning ota-onasi uzoq vaqt farzand ko'rmaydi. Ular Hazrat Ali (Shohimardon) qabriga borib, tilab-tilab, nola qilib yurib, aynan avliyolarning duosi bilan farzandli bo'lishadi.

Bundan ko'rinadi-ki, hozirda ham o'zbek xalqida avliyo yoki shunga o'xshash zotlardan farzand tilab olish odati mavjud.

Bu haqida olim Mizayev T.: "Dostonda qahramonning homiylari — Shoxi Mardon, yetti chilton, Xizr va boshqa mifologik personajlar shunchaki mo'jizakor kuchlar emas, balki xalqning adolat va g'alaba haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlarining badiiy ifodasidir." [1] – deya aytib o'tgan.

Bundan tashqari unga ism qo'yilishi: Hakimbek (Alpomish) ismini ham o'sha g'oyibona kuchlar-pirlar qo'yib beradi. Ism qo'yilgan paytdanoq uning kelajakda buyuk qahramon bo'lishi bashorat qilinadi.

Tug'ma qudrat: Alpomish tug'ilgandayoq yelkasida ko'k nishoni bo'ladi. U beshikdayoq shunday kuchga ega bo'ladiki, oddiy bolalardan keskin farq qiladi. Jumladan, 7 yoshida o'n to'rt botmoli yoyni bemalol ko'taradi. Bu ham, albatta, dostonidagi afsona va mifik belgi tahliliga misoldir.

Ushbu "ko'k nishon" belgisini mifik belgi sifatida talqin qilar ekanmiz, xalqimiz e'tiqodiga ko'ra, bunday belgilar bilan tug'ilgan bolalar kelajakda buyuk pahlavon yoki el himoyachisi bo'lishi mumkin, degan afsona va qarashlar mavjud.

Ushbu ramzlarni yunon mifologiyasi bilan bog'laydigan bo'lsak, bu xuddi afsonaviy qahramon Gerkulesga o'xshaydi. Gerkules ham Zevsning o'g'li bo'lgani uchun beshikdayoq ilonlarni bo'g'ib o'ldirgan. Alpomishda ham shunday "ilohiy tanlanganlik" bor. Bundan tashqari, Alpomish va Gerkulesning tug'ilish holatlariga qarasaq, Gerkules ham ma'buda Afina homiylik qilishi yordamida dunyoga keladi.

Endi esa dostonidagi mifik yordamchi obrazlarga to'xtaladigan bo'lsak, Alpomishning oti Boychibor: U shunchaki ot emas, qahramonning dardiga sherik, tilga kiradigan va uzoq

masofalarni bir zumda bosib o'tadigan mifik yordamchi. Shunga o'xshash holat yunon mifologiyasida ham o'z o'rnini topganki, bunga asos Pegas oti (Pegasus). U qanotli ot hisoblanib, u ham qahramonlarga yuksaklikka ko'tarilishda va dushmanlarni yengishda yordam bergan.

Go'ro'g'li dostonini tahlilimizga oladigan bo'lsak, uning butun dostonlar turkumi "Alpomish" dan ham qiziqarliroq va murakkabroq.

Go'ro'g'li-so'zma-so'z tarjima qilinsa, "go'rning (qabrning) o'g'li" degani. Bu jahon mifologiyasida ham uchraydigan, ota noyob motiv. Xususan, uning afsonaviy tug'ilishi: uning onasi homilador paytida vafot etadi va qabrga qo'yiladi.

"Bibi Hilolning o'lganiga uch oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tdi. Ravshanbekdan olti oylik gumona qolgan edi. Bibi Hilol o'lgan bo'lsa ham, bolasi o'lmagan ekan. Shunda vaqt yetdi. Tug'moqchi bo'ldi. Bibi Hilolning o'ligi go'rda tebrandi. O'lik badanini to'lg'oq tutdi.

Hilolning tanasi go'rda tebrandi,
Endi tutdi Hiloloyning to'lg'og'i.
Mavj urib, misli bir daryoday toshdi.
Hoy attang-a, dardlar dardga ulashdi.
Chaqaloq qimirlab ena qornida,
Hiloloyning farzandi go'rga tushdi.
Bachchaning yuzining oydinligiga,
Barq urib, go'r yop-yorug' bo'ldi.
Bibi Hilol bir nozanin ul tug'di.
Uch kecha, uch kunduz oradan o'tdi...

Hiloloyga jon kelmadi, lekin bolaga emchagidan sut kelib yotdi. Shu orada o'rtadan uch yil o'tdi. Go'ro'g'li tug'lgandan beri go'rda chiroq yonib turar edi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Yana uch kun o'tdi. Hiloloyning emchagidan sut kelmay, badani ko'mirday cho'ykab ketdi".[2]

Bu haqida Bahodir Sarimsoqov: "Go'rog'lining go'rda tug'ilishi va o'lik onasining emizishi bilan bog'liq motiv — bu qadimgi ajdodlar kulti hamda insonning tabiat bilan uzviy bog'liqligi haqidagi mifik qarashlarning dostonchilikdagi transformatsiyasidir." [3]- deb aytib o'tgan.

Go'ro'g'lining Hazrati Xizrdan ko'mak olishi. Xalqimiz orasida bu nom ma'lum va mashhur hisoblanadi. Jumladan, aytiladiki, tushida kim Hazrati Xizrni ko'rsa, hayr va barakaga erishibdi, degan qarashlar mavjud. Bu esa, albatta, dostonda ham ko'rinadiki, Go'ro'g'li har doim chorasiz qolganda hazrati Xizr paydo bo'lib, unga yo'l ko'rsatadi yoki g'oyibdan kuch beradi. Bu yunon mifologiyasidagi Odisseyga doim yordam beruvchi Afina ma'budasiga juda o'xshaydi.

"Go'ro'g'li" dostonidagi mifologik hayvonlar. G'iro't-Go'ro'g'lining oti bo'lib, u shunchaki hayvon emas, balki qahramonning ajralmas bo'lagidir. Uning g'ayritabiyligi shunchaki, u "suv otlari" avlodidan, ya'ni yarmi mifik mavjudot. U dushman kelayotganini oldidan sezadi, ucha oladi va egasi bilan gaplasha oladi. Balki, ushbu otga nisbatan bo'lgan, aytilgan afsonalardandir, o'zbek xalqi orasida ot o'zgacha qadrlanadi, unga nisbatan chuqur mehr bilan qaraladi va ko'p uylarda uy hayvonlari sifatida sevib boqiladi. Bundan ko'rinadiki, Alpomish, Go'ro'g'li va yunon mifologiyasida ham ayni bir xil obrazlar ko'p uchraydi, bu esa qadimgi dunyo xalqlari ildizlariga yuzlanishni taqazo etadi.

Bu haqida Jirmuniskiy: "Alpomish va Go'rog'li kabi epik qahramonlar obrazida qadimiy mifologik unsurlar real tarixiy sharoitlar bilan shunday chatishib ketganki, biz ularda ham

xalqning mifologik tafakkurini, ham milliy ozodlik ideallarini ko'ramiz." [4] - deya ta'kidlab o'tgan.

Xulosa:

Fikrlarimizni umumlashtirib xulosa qilar ekanmiz, o'zbek xalq qahramonlik dostonlari bo'lmish "Alpomish" va "Go'ro'g'li" ustida olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu asarlar shunchaki badiiy to'qima emas, balki chuqur mifik ildizlarga ega bo'lgan, xalqimizning ayrim qadriyatlarini kuch-qudrat, bahodirlik, aka-uka rishtalari-xullas butun bir insonga ega bo'lgan xislatlarni o'zida aks ettiruvchi milliy xazinadir. Ushbu asarni g'arb (yunon) mifologiyasi bilan solishtirishdan maqsad shunchaki, o'xshashlik topish emas, balki juda ilmiy va milliy stragik maqsadlar ko'zlangan. Bu bilan o'zbek dostonchilik maktabi jahon sivilizatsiyasining bir qismi ekanligini va bizning qahramonlarimiz ham g'arb mifologiyasi, dostonchiligi singari bir xil qatlamda turishidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirzayev T.: "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968,120-140-b.
2. Matchonov S va b.:" Adabiy ta'limda zamonaviylik:tajriba va motivatsiya",- Toshkent:ToshDO'TAU, 2017,45-48-b.
3. Sarimsoqov B." O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi",- Toshkent:" O'qituvchi", 1990,152-167-b.
4. V.M.Jirmunskiy: "O'zbek xalq qahramonlik eposi"-Toshkent:"O'zfan",1947,84-96-b.